

O`zbekiston Respubikasi Oliy va O`rta Maxsus Ta'lim

VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

BIOLOGIYA O`QITISH METODIKASI
(ma'ro`zalar matni)

Namangan – 2023 yil

Ushbu «Biologiya o`qitish metodikasi» fanidan ma'ruzalar matni NamDU o`quv – uslubiy kengashning 23 yanvar 2001 yildagi 4-sonli bayonnomasida ko`rib chiqilib nashrga tavsiya etilgan.

To`zuvchi:

O.Abdiyeva

So`z boshi.

Biologiya o`qitish uslubiyoti biologiya fakulteti 3 boskich talabalari uchun muljallangan. Mazkur fandan ukiladigan 27 soat ma'ro`za uchun ma'ro`za matnlari tayorlashda biologiya ta'liminish oxirgi davrdagi vazifalarga e'tib berildi.

Ma'ruza matnlar tayorlashda O`rta osiyolik q'omusiy olimlarni tabiatshunoslikni o`qitish xaqidagi fikrlari, biologiya o`qitishning metodlari, shakllariga bir muncha keng o`rin beriladi. Biologiya darslarini tashkil etish. o'tkazish, darsdan va auditoryadan tashkari mashgulotlarni tashkil etidu masalalari keyishi yillarda tuplangan navator o`qituvchilarning ish tajriblariga asoslagan xolda xolda bayon kilinadi. Shu bilan birga mazkur boskich talabalariga biologiyaning xozirgi zamon muammolari va o`qitish uslubiyotidan maxsus kurs utilishi xisobga olib chiqib maktab bilogiyasi fanlarining tizimi, mazmuni biologiya ta'limiga o`qituvchilar faolliklarini ortirishni ba'zi tomonlari xakida masalalarga kengrok urin bergan. Ma'ro`za matnlari sodda, tushunarli kilib yozishga e'tibor berildi.

1- mavzu: Kirish

Reja.

1. Biologiya o`qitish metodikasining predmeti, vazifalari.
2. Biologiya o`qitish metodikasining ilmiy tekshirish uslublari.

Biologiya o`qitish metodikasi – maktab o`quv predmeti xususiyatlariga bogliq xolda ta'lim – tarbiya jarayonini tashkil etishning sistemasi xaqidagi fandır. Biologiya o`qitish metodikasi pedagogika fanlari tarkibiga kirib, maktablarda ukitiladigan fanlar buyicha ta'lim berishni umumiy talablari asosida ish olib boradi.

Biologiya o`qitish metodikasi biologiya fanlarining qo`lga kiritgan yutuqlari asosida ish kuraman. Biroq biologiya o`qitishda fanning ko`lga kiritgan barcha yutuqlari xaqida o`quvchilarga ta'lim berish imkoniyati cheklangan. Binobarin biologiya metodikasi, biologiya fani kabi tirik organizmlarning rivojlanish qonuniyatlari emas, balki biologiya talimidagi pedagogik jarayonlarning qonuniyatlarini o`rganadi.

Biologiya o`qitish metodikasini predmeti maktab biologiya fanlaridir. U biologiya fanlarini o`z ilmiy tekshirish uslublari yordamida o`rganib, q`uyidagi vazifalarni bajaradi.

1. Biologiya fanlarining tarakkiyotiga mos ravishda maktab biologiya ta'limi uchun mavzular tanlaydi.

2. Biologiya ta'limning samarali metodlari, shakllarini aniklaydi.

3. Ta'lim jarayonida o`quvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish masalalarini urganadi.

4. Talim uchun zarur bulgan kurgazma kurollar, jixozlarni aniklaydi.

Biologiya o`qitish metodikasi umumiy va xususiy metodikalarga bulinadi. Biologiya o`qitish metodikasining boshka fanlar bilan boglanishi.

Biologiya o`qitish metodikasi avvalo biologiya fanlarini bilan boglanadi. Maktab biologiya predmedlarining mazmuni ilmiylik talabiga javob berishi zarur. Shu boisdan metodika katta – katta bo`limlarga bagishlanib o`qituvchi bu bo`limdan darslarni oldindan tiplarini, ukuv – tarbiya ishlarini maksad vazifalarini aniklab beradi. Maslana: 9 sinf umumiy biologiya predmetida xujayra maveusi uchun.. soat, genetika va selektsiya asoslari uchun.. soat, ekologiya asoslariga esa.. soat ajratiladi. O`qituvchi bu maveular uchun tematik rejasi to`zib olishi natijasida u

maekur maveularni urganishda ko`prok nimalarga etibor kilish, kaysi mavzulardan sung o`quvchilarning bilim va malakalarini aniklanishga karatilgan darslar tashkil etish maksadga muvofik ekanligini rejalashtirib oladi. Undan tashkari tematik rejalashtirishda mavzularni urganishga oid ekskursiyalar, darsdan, sinfdan tashkari ishlarni urni, tashkiliy shakllari xam belgilab olinadi.

Darslarga tayyorlanishda o`qituvchi darslikning dieayin apparatini urganib chikadi. Darslikdagi matnning izoxi yoki tasdigi sifatida berilayotgan rasm, sxemalar maemuniga :etibor beradi. Berilgan rasm, sxemalar mavzu mazmunini kanchalik boyitish tasdiklashi mumkinligini taxlil kiladi. Dars mavzusi uchun yana kanday rasm sxemalar zarurligini o`ylab kuradi. Darslikdan savol topshiriklarni o`quvchi uchun kanchalik tarzda to`zilmagan bulsa, o`qituvchi ularni sodda xol keltiribo`quvchilargayetakazish yullarini belgilaydi. Dars mvzusini yanada boyitish uchun o`qituvchi darslikda berilgan rasm, sxema yoki topshiriklaridan tashkari, o`zi o`quvchilarni ijodiy ishlariga xizmat kiluvchi yani topshiriklarga, mantiliy fikrlashga undovchi rasmlar, ayrim masalalarni shuningdek o`quvchilar kurgan, bilgan tabiiy obektlar, xodisalar xakida misollar rasmlar berilishi maksadga muvofikdir. Biologiya fanlari tarakkiyoti, yutuklari, yunalishlarini doimo ko`zatib borish kerak, biologiya fanlarini maksadi turli tadkikotlarorqalitirik tabiat xakida yangi – yangi bilimlarni urganishga karatilsa maktab biologiya predmetlari maksadi biologiya fani kulga kirittan yutuklari xakida o`quvchilarga ta'lim berishdan iborat. Undan tashkari biologiya o`qitish metodikasi agranomiya, tibbiyot, gigiyena, falsafa, pedagogika va ruxshunoslik fanlari bilan xam yakindan alokada buladi.

Keyingi yillarda biologiya ta'limida predmetlar aro boglanishlardan foydalanish masalasiga e'tibor kuchayganligi munosabati bilan u kimyo, fizika, geografiya kabi qator fanlar bilan alokada bulmokda.

Biologiya o`qitish metodikasi fanining ilmiy tekshirish uslublari.

Boshka fanlardagiga uxshash biologiya o`qitish metodikasining o`z ilmiy – tadkikot usullari bulib, bu usullarni kullanishi natijasida olib borilayogan ishlar biologiya o`qitish metodikasining fan sifatida tarakkiy etishiga xizmat kilmokda. Biologiya o`qitish metodikasining ilmiy – tekshirish usullariga kuyidagilar kiradi.

1. Pedagogik ko`zatish metodi bu metod kullanilganda mutaxassis ko`zatuvchilar maktablarda ishlayotgan biologiya o`qituvchilarining ish

tajribalarini urganib ular ichida eng samarali ishlayotganlarini ish tadbirlarini urganib, bu tajribalarni o`qituvchilar orasida tashvikot kilib boradilar.

2. Pedagogik eksperiment metodi. Ushbu metod ilmiy tekshirish ishlarida ko`p foydalaniladi. Tadkikotchilar maktablarda biologiya ta'limining muammolarini xal etishga karatilgan yangi rejalar (darslar, darsdan, sinfdan tashkari mashgulotlarni utkazish buyicha) yurik, va ishlanmalar to`zib bularni maktablardagi biologiya ta'limida sinovdan utkazishadi. Biologiya ta'limi mazmunining yanada yaxshilashga muljallangan bu eksperimentallarning samaradorligini aniklash uchun odatda tajriba kontrol sinflar ajratib olinadi. Tajriba uchun taplangan sinflarda utkaziladigan ta'lim tadkikotchilar ishlagan yangi ish rejasi asosida olib boriladi. Kontrol Sinflarni esa ta'lim maktab o`qituvchisining xoxishi tuzganrejasi buyicha utkaziladi. Tajriba va kontrol sinflarda bir xil mazmunining iki xil reja asosida uktilib xar ikkala sinfda mavzuning urganish samaradorligi taxlil kilinadi. Agar mavzuni urganishda ilmiy tadkikot tuzgan reja yaxshi samara berib mavzuni urganishda o`qituvchilarning faolliigi ortib o`zlashgirish kontrol sinfidagiga karaganda bir muncha yukori bulib bu natijalar boshka maktablardagi eksperimentallar natijasiga xam bir necha bor takrorlansa ushbu yangi ish reja o`qituvchilar orasida keng yoyiladi. Ta'limga joriy etiladi.

3. Psixologik kuzatish megodi. Biologiya fanlari 6 – 9 sinflar, shuningdek litsey, kollejlarda o`qitilganligi uchun uni turli yoshdagi o`quvchilar o`rganiladi. Shu boisdan ta'lim samaradorligini ortirish uchun turli yoshdagi o`quvchilarning ruxiy xolatlarini bilish, ularni biologiya ta'limiga munosabatlari, kizikishlari, dikkatlari, o`quv materialining esda saqlash, faolliklari kabi shaxsiy xususiyatlarini xisobga olish zaruriyati tugiladi. Ushbu metod qo`llanilganda tadqiqotchilar o`quvchilarning dars, dars, sinfdan tashkari mashgulotlarga bo`lgan munosabatlarini anikqab berishadi. O`qituvchilarning darsning qanday tashkil etgani, o`quvchilargamuomalasi, foydalagan ko`rgazmali qurollardan, noananaviy talim yoki uning elementlarida foydalanishi o`quvchilarga qanday ta'sir etishi, faolliklariga sabab bo`lishi yeki aksincha o`qituvchilarning qanday dars tashkil etishi, foydalangan ta'lim metodlari ko`rgazmali qurollari, o`quvchilar bilan aloqalari o`quvchilarni darsga loqaydligi, etiborsizligi, bilimlarni yaxshi o`zlashtirmasliklariga sabab bo`layogganligi o`quvchilarning dars

mavzusining o'rganishga bo'lgan qiziqishlari, folliklariga sabab bo'luvchi omillarni ajratilib, ularni tashviqot qilinadi.

Talabalar bilimlarini tekshirish uchun savollar.

1. Biologiya o'qitish metodikasining predmeti, vazifalarini aytib bering.
2. Umumiy biologiya o'qitish metodikasining vazifalarini nimalardan iborat
3. Xususiy biologiya o'qitish metodikasining vazifalarichi?
4. Biologiya o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi xaqidagi fikrlaringiz.
5. Biologiya o'qitish metodikasining ilmiy uslublarini aytib bering.

Tayanch iboralar.

O'qitish metodikasi. Metodikaning vazifalari. Umumiy, xususiy metodika. Metodikaning fanlar bilan aloqasi. Adabiyotlar. Izox: Mavzular uchun zarur bulgan adabiyoglar mazkur matnlarning oxirida berilgan ruyxatdagi tartib nomerlariga asosan berilib fakat ularning tartib rakamlari keltiriladi.

2-Mavzu: BIOLOGIYA O`QITISH METODIKASINING RIVOJLANISH TARIXI. O`RTA OSIYOLIK QOMUSIY OLIMLARNING TABIATSHUNOSLIK TA'LIMI XAQIDA FIKRLAR.

R e j a.

1. Urta Osiyoda zardushtiylikni paydo bulishi va uning mukaddas kitobi «Avesto» da tabiat xakida fikrlar.
2. A.Beruniy, A.Farobiy, Ibn Sino kabi komusiy olimlarning tabiat va uni o'qitishga oid didaktik karashlari.

19 – 20 asrlarda Turkistonda tabiatshunoslikni ukitilishi. Urta Osiyoda tabiatshunoslikni o'qitishning metodikasi fanining paydo bulishi na rivojlanishi asosan 20 – asrga tugri keladi. Garchi bu yerlarda jaxonga mashxur bulgan Beruniy, Farobiy, IbnSino kabi komusiy olimlar yashab ijod etgan bulsalarda, bu allomalarning tabiat o'qitishga oid Karashlari yetarli urganilgan emas. Turkistonda tabiatshunoslikka bulgan karashlari biz zardushtiylikni mukaddas kitobi «Avesto» saxifalaridan topamiz. Bu kitobga sharkning birinchi faylasufi. donishmandi Zardusht (589 – 512 y) asos solgan. «Avesto» 1200

bobdan iborat bulib, u xayotning barcha soxalari buyicha ma'lumot beradigan ulkan kitobdir. Unda Markaziy Osiyo xalklarining eng kadimgi urf – odatlari, kushiklari, dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik, savdo – sotikda bulgan karashlar mavjud. Bugina emas, Avegto saxifalarida jugrofiya, falakiyot, tibbiyot; biologiya va boshka fanlarga doir materiallar bor. Ayniksa kitobda tabiatshunoslikka e'tibor ko`prok berilgan. Tabiatshunoslik materiallari tibbiyog va ekologiyaga oid yuriklarda o`z aksini topadi, jumladan, turli kasalliklar va ularning oldini olish, davolash, tabiatlarining axloki, ayrim konunlar shaklida bayon etiladi. Avestoning ekologiya masalalar buyicha yuriklar ibratlidir. Bu yuriklarda yer,suv, xona, badan va kiyim kechaklarni ovkatlarni toza saklash earurati uktiriladi. Inson yoki xayvonlar uligi tushgan soy, arik, kuduklarni bir necha marotaba obdon tozalash talab etiladi. Pashshalar, kushlarorqaliyukadigan kasalliklar uy xayvonlarini saklash, muxofaza etishga oid kursatmalar, badan tarbiya masalalari, dorivor usimliklar va ulardan foydalanish kabi bir qator masalalarga xam urin beriladi.

«Avesto» mukaddas kitob bulganligi sababli usha davrdan yoshlarga ta'lim tarbiya berishda unga shubxasie amal kilingan. Demak Markaziy Osiyoda kadimdan tabiatga bulgan karashlar o`z moxiyatiga kura ilmiy yunalishiga asoslanib, yoshlarga ta'lim berishda undan ogishmay foydalanilgan.

Urta Osiyo turli fanlar rivojlanib endi dunyoga tanilgan, komusiy olimlar barakali mexnat kilib kelgan bulsalarda, bu kobiliyatlarining tabiatshunoslikni o`qitish megodikasi xakidagi fikrlari yegarli urganilmagan.

Urga Osiyolik komusiy olimlar o`z asarlarida «Komil inson» tarbiyalash masalalariga jiddiy e'tibor berganlar. Ayniksa ular fanning jamiyat xayogiga axamiyatini yaxshi tushunganlar. Shu boisdan allomalar «Komil inson» tarbiyasida maxoratli o`quvchilar bulgan deb ayta olamiz.

Abu Nasr Farobiy (873 – 930)

Ta'lim tamonlari va metodlariga katta axamiyat beradi. U tabiatshunoslik ta'limida kurgazmali metodni yoklab, insonni bilishi sezgilardan boshlanishi, sezgilardan xosil bulgan bilimlar milliy fikrlashorqaliyanada boyishini kursatadi. Shu boisdai Farobiy tabiatshunoslik ta'limida analiz, sintez yuli samaraliligiga katta e'tibor kiladi. Olim «Mo`zika xakida kitob» nomli asarida nazariy, va amaliy fan tugrisida fikr yuritib, nazariy fan insonlarni ongini rivojlantirsa,

amaliy fan uning xayotini yaxshilashga xizmat kilishni binobarin;- tabiatshunoslik ta'limida nazariyani amaliyota boglab o`qitish lozimligini kursatadi. Farobiy xar kanday bilimning boshlanishi ko`zatish va tajribaorqalixosil bulishini kursatishi xam tabiatshunoslik o`qitishda bu metodlardan foydalanishni yoklashini bildiradi.

Abu Ali ibn Sino (980 – 1037)

Mashxur tabibgina bulmay, balki ulug pedagog xam edi. U o`zining «Donishnoma» asarida fanlarni klassifikatsiyalaydi. Ibn Sinoning xozir 240 ga yakin asarlari bulib bu asarlarda uning tabiatshunoslikka oid karashlari kursatib utilgan. Avvalo u tarbiyada akliy, jismoniy, estetik, ma'naviy jixatlar ustivorligi asosida tashkil etilishi lozimligini ta'kidlaydi. Ibn Sino xam ta'limda oddiydan murakkabga, o`quvchilarning kizikishlarini xisobga olish zarurligini kursatadi. Undan tashkari tabiatshunoslik talimi o`quvchilarning amaliy ishlari, jismoniy mashklari bilan kushib olib borilishi maksadga muvofik ekanligi kuyida fikr bildiradi.

Ibn Sino ta'limida tushunchalarni rivojlantirish moxiyatini kursatib xozirgi zamon tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi asoschisi ekanligini kursatadi. Ibn Sino ko`zatish, tajriba eksperimentlar tabiatni anglashni samarali metodlari ekanligini urgatadi. Narsalar inson ongida kayta ishlanib mantiliy xulosalar chikarish bilan bilimlar tugri, mustaxkam egallashni kursatadi.

Urta asrlarda yashab ijod kilgan komusiy olimlar tabiatigunoslik o`qitish metodikasiga doir maxsus asarlar yaratmagan bulsalarda, ularni didaktik karashlari asarlarida bayen ztiladi. Shubxasiz bunday allomalarning ta'lim tarbiya xakidagi fikrlari o`z zamonasida emas balki xozirgi davrda xam o`z kiymatini yukotgan emas. Tabiatshunoslidan dastlabki darslik 8 – asr boshlarida Xorazmlik olim Maxmud al – Chogminiy tomonidan yozilgan, darslik astronomiyaning kiskacha bayoni edi.

Musulmon olamida Burxon ad – Din az Zarunjiy birinchi bulib ta'lim metodikasiga oid «o`quvchilarga ta'lim berish» deb nomlangan kitob yozadi. Kitob 13 bobni o`z ichiga oladi. Unda fanlarning moxiyati, mashgulotlarni maksadi, ukuv materialini tanlash, o`quvchilar faoliyatlari va o`qitish vositalari kabi karator metodik maslallarni bayon etadi.

O`zbekistonda tabiatshunoslik o`qitish metodikasi fanining paydo bulishi va rivojlanishi, rus – to`zem maktablari tashkil topishi bilan boshlandi. rus to`zem makgablarida S.M. Gramenitskiyning natural

kurgazmali megodi joriy etildi. Ayniksa yangi usul maktablari tashkil bulganidan keyin unda arifmetika, tabiatshunoslik, geografiya kabi fanlar kiritilishi muxim vokealardan buldi. Tabiatshunoslik xaftasiga 4, geografiya 4, gigena 2 soat mobaynida ukitilgan.

O`zbekisgonda biologiya o`qitish metodikasi buyicha tadkikotlar 20 – asrning 2 – yarmidan boshlab rivojlandi. Biologiya metodikasida endilikda darslar, darsdan va sinfdan tashkari ishlarni tashkil etish va o`tkazish, tushunchalarni rivojlantirish, maxalliy materiallardan foydalanish kabi masalalarni ishlashga kirishildi. L.T.Gafurov, S.K.Xabirova, K.Samadov, G.S.Noga, Ye.Belskaya, A.Kodirov, X.Shokirov kabi metodistlar yukoridagi kursatilgan masalalar yo`zasidan bir orator tadkikot ishlari natijalariga asoslanib, biologiya ta'limining umumiy va xususiy masalalariga bagishlangan karator kullanmalarini chop ztishdi.

Savol va topshiriklar.

- 1 .Zardunshtiylikning mukaddas kitobi «Avesto» da tabiatga bulgan karashlarini tushuntiring.
 2. «Avesto»da gigiyena koidalarini berilishini aytib
 3. A.Forobiyning tabiatshunoslik ta'limi xakidagi fikrlarini tushuntiring.
 4. A.Beruniyning tabiatshunoslikni o`qitish xakidagi fikrlarini aytib bering.
 - 5 .Ibn Sinoning tabiatshunoslikni o`qitish xakidagi fikrlari.
 6. O`zbekistonda mexnat kilayotgan uslubchi olimlar va ularning ishlari xakida so`zlang.
- Tayach iboralar.

Zardushtiylik. Avesto. Forobiy. Ibn Sino. «komil inson» tarbiyasi uslubchi olimlar. Adabiyetlar.

3- mavzu: BIOLOGIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRIB TA'LIM BERISH MASALALARI.

R e j a.

1. Biologik tushunchalar va ularning insonda xosil bo'lishi.

2 Biologik tushunchalarning xillari.

3. Biologik tushunchalarning rivojlantirishni yo'llari, vositalari.

Tushuncha tabiatda narsa va xodisalarni tashki va ichki tuzilishlari, boglanishlarni aks ettirib inson ongida so'zlar vositasidagi im'tixosidir.

Insonda tushunchalar sezgilardan boshlanadi. Inson ko'ziorqaliturli narsalarni shakli, katga – kichikligi, rangi, xarakati, ba'zi xayotiy jixatlarini urgansa, kul sezgisiorqalishu narsalarni kattik – yumshokligi, issik, – sovukligini anikklaydi. Xid sezgisi bilan bu narsalarni tam bilishiorqalimazasini urganadi.

Sezgilardan idrok shakllanadi. Idrok tashki olamning sezgi organlariga ta'sir etishi tufayli ob'ektiv dunyoning sub'ektiv obrazidir.

Sistemali va malum reja asosida idrok kilish insonning ko'zatuvchaniligi xisoblanadi. Ko'zatuvchanlik o'z navbatida xotirani kuchaytirib turli takkoslashar umumlashtirishlarga sabab buladi.

Narsa va xodisalarni farklantirish, umumlashtirish abstrakt tafakkurga xosir. U sezgi va idrokdan firk, kilib narsa va xodisalarning ichki boglanishlarni moxiyatini ochib beradi.

Sezgi, idrok, tasavvur, abstrakt tafakkur va tushuncha bilish jarayonining boskichidir. Ta'limda tushunchalardan foydalanish masalasiga axamiyat berib kelingan. Kadimdan katta axamiyat berib kelingan. Ayniksa Urta Osiyoda yashab ijod ztgan komusiy olimlarning didaktik karashlarida o'z masalaga aloxida ztibor karatilgan. Masalan: Ibn Sino «Donishmanoma» asarida tushunchalari oddiy va umumiy xillari bulishi xakida ma'lumotlar beradi. Ibn Sino tushunchalarni xususiy va umumiy bulishligini kursatib

xususiy fakat birgina predmetga taalukli bilishi, xususiy tushunchalar asta rivojlanib borishi kursatadi.

Biologiya ta'limida tushunchalar iojlantiri sh nazariyasi 1550 yillarda Sank-Peterburgli metodistlar tomonidan ishlab chikildi.

Bular biologiya fanlari kulga kiritgan yutuklarni va maktab biologiya predmetlarini mazmunini siyosiy taxlil: etish natijasida biologik ta'limdagi asosiy tushuncha guruxlari, ular urtasidagi o'zaro boglanishlarni, nazariy va

amaliy tushunchalarni inson dunyokarashining shakllanishida va amaliy faoliyatidagi axamiyatlarini anikladilar. Bugina emas, tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi ayni tushunchalarni o'quvchilar ongida xosil kilish, rivojlantirishning metodik yullari, vositalarini ishlab chikishga imkon berdi.

Shunday qilib biologik tushunchalarni shakllantirish masalasini ishlanishi: 1. Urta maktablar biologiya ta'limi mazmunini belgilash; 2 – Mavzularni urganish tartibini to`zish, o`qitish; 3. Metodlarini aniklash; 4. Kurgazmalilik tamoilini amalga oshirish; 5 – Predmetlar aro boglanishlarni ilmiy jixatlarini ishlab, chikish xizmat kildi.

Biologiya tushunchalarning xillari.

Biologiya fanlaridagi tushunchalar bir – birlari bilan mantikan boglangan morfologik, anatomik, fiziologik, ekologik, sistematik, filogenetik, itologik, embriologik, genetik, agronomik, gigiyenik, paleantilogik tushunchalardan tarkib topadi.

Yukorida kursatilgan tushunchalar oddiy, murakkab maxsus va umumbiologik tushunchalar shaklida buladi.

Oddiy tushuncha usimlik va xayvonlar to`zilishi va xayot jarayonidagi eng sodda tomonini aks etdiradi. Masalan: .«barg», «novda», «gul» kabi tushunchalar usimlikning fakat bir organi xakida tushunchadir.

Birok, fan taraqqiyotida, shuningdek biologiya talimida oddiy tushuncha asta rivojlanib murakkab tushunchaga aylanadi. Masalan: barg mavzusidagi darslarda o`quvchilar birgina tashki ichki to`zilish, unda ketadigan xayotiy jarayonlar bilan tanishib borgan sari dasglabki, oddiy tushuncha darsda utgan sari o`z tarkibiga yangi yangi tushunchalarni qamrab murakkab tushunchaga aylanadi. Masalan: yashil. barglar yoruglikda So₂ yutilishi, kislородni chikishi», Bargdagi organik

modalar xosil bulishi kabi mavzular shular jumlasidandir.

Dastlabki barg xakidagi tushuncha o`z tarkibiga anatomik, fiziologik, morfologik, ekologik tushunchalarni mushtarakligida murakkab tushunchaga aylanadi. Maxsus tushunchalar fakat ayrim fanlarni urganish doirasida uchraydi. Masalan: Usimliklarning mineral oziklanishi, morfologiyasi, zoologiyadan xam xayvonlar morfologiyasi, anatomiyasi, fiziologiyasi kabilar maxsus tushunchalardir. Umumbiologik tushunchalar barcha tirik organizmlarga xos bulgan biologik xodisa, konuniyatlarni xal zttiruvchi tushunchalar bulib bularga xujayra xayot birligidir, organizmlar to`zilishi ma bajarish vazifasi birligi, organizm o`z o`zini boshkaruvchi sistema, moddalar almashinuvchi va znergiyaning o`zgarishi kabilar misol buladi.

Umumbiologik tushunchalar xam oddiy tushunchalarning rivojlanishi natijasida xosil buladi.

O`quvchilar ongida tushunchalarni xosil qilish va rivojlantirish masalasini tugri tashkil etish uchun o`qituvchi, tushunchalarni mavzudan mavzuga utgan sari kanday rivojlantirish yullari va vositalari urganib chikishi zarur.

Shu boisdan urganiladigan xar bir tushunchani ajratish, uni kaysi tushunchalar bilan boglash, tushuncha xosil qilish uchun zarur kurgazma kurollar, o`qitish metodlarini tanlash muxim vaziyatlaridan xisoblanadi.

O`qituvchi darsga tayyorlanar ekan, u dastur talablari buyicha o`quvchilarda kanday yangi tushunchalar xosil qilish va tushunchalarni kaysi metodlar, vositalar yordamida o`quvchilar ongida shakllantirish masalalarini taxlil kiladi. Predmetlararo boglanishlardan foydalanish imkoniyatlarini xisobga oladi.

Darsda morfologik mazmundagi masalalar urganiladigan takdirda amaliy metod yetakchiligida, anatomik fiziologik mavzularda kurgazmali, zkologik mavzuda ogzaki va kurgazmali metodlardan foydalanish talab etiladi. O`quvchilar ongida tushunchalarni xosil qilish va shakllantirish, ularni fikrlash kobiliyatini rivojlangirishga karatilgin. Shu boisdan o`qituvchi darsni tashkil etishda analiz, sintez, umumlashtirish kabi amaliy operatsiyalar vositasida olib borishga barakat kiladi. O`quvchilarni dars-faoliligini orttirishga xizmat kiluvchi muammoli ta'lim, didaktik uyinlar, konferentsiya darslari ayniksa tushunchalarni puxta o`zlashtirib olishga yaxshi xizmat kiladi.

Tushunchalarning rivojlantirish masalasi o`quvchilarning fakat ilm olishgagina emas balki amaliy malaka va kunikmalar xosil qilish va rivojlantirishga xam karatilgan. Shu boisdan mavzuni urganishda o`quvchilarning mustakil ishlarni tashkil etishi xam e'tiborni karatish kerak. Tushunchalarni rivojlantirish talablari buyicha ukuv – tarbiya ishlarini tashkil etish uchun o`qituvchi darsga kuyidagicha tayyorgarlik ishlarini kurishi kerak.

1.Dastur talabi buyicha urganiladigan mavzuda o`quvchilarda kanday tushunchalarni xosil qilish zarurligini aniklash;

2. Dastur talabidagi tushunchalarni darslar kay darajada aks etganligini aniklash;

3. Yangi urganiladigan mavzudagi tushunchalar gruxlarini ajratish;

4.Tushunchalarni urganishga ijobiy ta'sir etuvchi o`qitishning shaklini tanlash;

5. Yangi urganiladigan tushunchalarni avvalgi darslarda urganilgan tushunchalar bilan boglash yullari;

6.Tushunchalar xosil qilish va mustaxkamlashga xizmat etuvchietuvchi dars jixozlarini tanlash;

7.Tushunchalarni urganishdagi xonalarning mashgulotda o`quvchi va o`quvchilarning kobilyatlarning belgilash;

8.Tushunchalarni urganishda o`quvchilar faoliyatiga tasir etuvchi yullar vositalarni topish;

9.Tushunchalarni urganish, boyitishga xizmat kiluvchi ilmiy – uslubiy ommabop adabiyotlardan foydalanish xam belgilash;

O`quvchilarning turli tajribalar, eksperementlar utkazish takkoslashlar, xulosalar chikarishlarorqalixosil kilinadigan tushunchalar darajasidir. Kuyidagi jadvalda bilan botanika fanida xujayra tushunchasining rivojlanish darajalari beriladi.

«xujayra» tushunchasining rivojlanish darajalari.

Tushuncha ning rivojlanish darajalari	Tushunchaning mavzusi, xajmi:
I	Usumlik xujayralari juda mayda sharchalardir (dastlabki tasavur)
II	Usumliklar xujayralardan to`ziladi xujayra pust, tsitoplazma, plastidlar kabi tarkibiy kislardan iborat (umumiy tasavurlar)
III	Xujayra oziklanish nafas olish xarakatlanish va ko`payish kabi xujayra kobigi tashkaridagi xujayra ichiga fakat zarur narsalarni tushuncha
IV	Xujayra xayotning asosiy birligidir. Usumlikdagi turli tukimalar xujayralar to`zilishi vazifalariga karab xilma-xil buladi. (nazariy)

Savol va topshiriklar

1. Insonning bilish jarayoni xakida so`zlang.

2. Tushuncha nima Biologik tushuncha xillarini aytib bering.
3. O`quvchilarda tushunchalarni xosil qilish va rivojlantirishni asosiy shartlarini aytib bering.

Tayanch iboralar.

1. Bilish jarayoni. Sezgi. Idrok. Tasavvur. Tushuncha. Tushuncha xillari. Tushunchalarni rivojlangirish,

4-mavzu: BIOLOGIYA O`QITISH METODLARI.

Reja.

1. O`qitish metodlari xaqida tushuncha
2. Biologiya o`qitish metodlarining xillari
3. Og`zaki metoddan foydalanish.

Metod o`zining umumiy manosida maqsadga erishdagi ma'lum tartibga solingan faoliyatdir.

O`qitish metodi o`qituvchi va o`quvchilarning faoliyatlari birligini aks ettiradi. Shu boisdan o`qitish metodi

o`qituvchining bilimlar berish usuli va ayni paytda ularni o`quvchilar tomonidan o`zlashtirib olish usulidir.

O`qitish metodining yuqoridagi ta'rifidan ikki bir – biriga bogliq tomon ya'ni o`qituvchi va o`quvchilarni birgalikdagi faoliyati tushuniladi. O`qitish metodi tanlashda xar ikkala tomonni xisobga olish zarur, Tanlangan metod o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatiga ijobiy ta'sir kursatgan taqdirda kutilgan natijani beradi.

Xar qanday metod insonning o`z oldiga qo`ygan ma'lum maqsadiga karatilgan ongli xarakatlari tizimidan iborat bo`lgan faoliyatdir. Binobarin xar kanday metodni qo`llash zamirida insonlarning qandaydir maqsadi bo`ladi. Inson o`z oldiga qo`ygan maqsadiga erishmogi uchun turli yo`llar, vositalar orqali ishga tushadi. Ish jarayonida u bajarilayotgan mexnat natijalarini kuzatib, ma'lum tuzatishlar kiritib, yo`l qo`ygan xatolarini anglab boradi.

Insonni qo`llagan metodi doimo qandaydir ob'ektga qaratilgan bo`ladi. Masalan: duradgor qandaydir stolni yasamoqchi bolsa u o`ziga maqul bo`lgan ish usullari, asboblari bilan yogoch (ob'ekt) bilan ishlaydi. Demak duradgorni ish ob'ekti yogoch taxtalar bo`lib, u shu narsalardan ish qurollaridan foydalanib o`z maqsadi tomon xarakatlar kilib, oxirgi natija – stol tayyorlaydi. Biroq duradgor o`z oldiga

qo'yilgan maqsadini amalga oshirish uchun muomilada bo'ladigan ob'ektni ya'ni yegoch, taxtalar xaqida tasavirlari bo'lishi lozim.

"Xar qanday yogochdan xam stol yasab bo'lavermaydi. Shu bois u stol uchun mos bo'lgan yogoch xilini farqlashi, tanlashi lozim bo'ladi. Duradgor stol yasash uchun tanlagan yogochga asboblari va amaliy xarakatlari vositasida ishlov berishi natijasi o'larok yogochni o'zgartirib undan yangi maxsulot stol tayyorlaydi.

Aksariyat kasb egallari o'z ish faoliyatlarida tanlagan ob'ektlar ularning tanlagan metodi bilan o'zgartirilib kutilgan natijani beraveradi.

Ta'lim jarayonidagi qo'llanildigan metodlar esa doimo kutilgan natijani berishi uchun o'qituvchining ish ob'ekti bulmish o'quvchini xususiyatlarini xam xisobga olish kerak buladi. O'qituvchilik kasbini asosiy maksadio'quvchilargata'lim-tarbiya berishdir. Demak.o'qituvchi o'z maksadini amalga oshirishi uchun doimo o'quvchilar bilan ish olib bormogi kerak.

O'qituvchining ish ob'ekti – shaxsdir. Shu boisdan o'qituvchi o'z ish ob'ekgi bo'lgan o'quvchini shaxsiy xususiyatlarini xam xisobga olishi, o'quvchining qizikishini, faolligini, aqliy qobiliyatlarini, intilishlarini xisobga olmog'i kerak.

Ta'limda o'qituvchi o'z maqsadini amalga oshirishga xarakat kilishini, albatta u o'quvchini maqsadini anglashi, shunga qarab ish yuritishi lozim bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchilarning maqsadlari bir-biriga mos bo'lganda quyilgan maisadga erishib bo'ladi ;

O'qituvchi va o'quvchilariig maqsadlari bir – biriga mos bo'lmagan xollarda ta'limdagi ko'zlagan maksadini oshirib bo'lmaydi. Yukoridagilardan xulosa qilinsa ta'lim jarayonida qullaniladigan metodni xam o'qituvchiga xam o'quvchiga mos bo'lsagina u natija berishini ko'rish mumkin.

Biologiya o'qitish metodlari xaqida adabiyotlarda turlicha fikrlar mavjud. Masalan: Ye.P.Brunovg (1976) ko'rsatishicha – tushuntirish va namoish etish, kisman izlaiish va izlaiish kabi metodlar borligi xaqida yozib, xaqiqiy metodikga esa ogzaki, ko'rgazmali va amaliy kabi xillarga bo'linishi xakida ma'lulotlar bergan. Muallif ogzaki metod ichida xikoya, xikoya – suxbat, suxbat, kitob ustida ishlash, yozma ishlar kabi xillar bulishligini kursatadi.

I.D. Zverev (1978) biologiya o'qitish metodlarini bilimlarini yangilash manbaalariga karab, ogzaki, amaliy, o'qituvchi va o'quvchilar

faoliyatiga karab yaigi ukuv metodlarini o`qituvchi tomonidan bayoi etish kabilarni kursatadi. Shuningdek o`qitish metodlari xakidagi gurli mualliflarning talimning didakgik vazifalariga boglik, bulgai xamda o`quvchilariiiiig musaakilligi va faolligiga xizmat turli metodlar mavjudligi xakida ma'lumotlar keltiriladi. N.M. Verzilin va

V.M.Korsunskayalar (1983) biologiya ta'limida 3 xil metoddan foydalanish xakida yozadilar. Fikrimizga ushbu mualliflarning biologiya ta'limida ogzaki, kurgazmali va amaly megodlardan foydalanish xakidagi kursatmalari ancha sodda va tugridir. Chunki ukuv materialini urganishda o`quvchilar uii eshigish, tinglash, kurish yoki ularga' ma'kul amaliy mashgulotlarni boshkarishlari zarur buladi. Shu boisdan xam biz xozirgi

davrda biologiya talimida yukorida kursatilgai uch xil metodga asoslanamiz..Malumki biologiya ta'limida kullaniladigan ogzaki kurgazmali va amaliy metodlar o`qituvchi va o`quvchilardan dars

materialini urganishda turlicha faoliyatda bulishligini takozo etadi. Ushbu metodlar kullanilganda o`qituvchi va o`quvchilar faoliyatini 2 – jadvaldan kurish mumkin. 2 – jadval. Turli o`qitish metodlari kullanilganda o`qituvchi va o`quvchilar faoliyati.

	Metodlar		
	Ogzaki	Kurgazmali	Amaliy
Bilim manbai	So`z	Kurgazmali	Amaliy ish
O`qituvchi bilim beradi	So`zlash orkali	Kursatish bilan	Yullanma orqali
O`quvchilar bilimlarni oladi	Tinglash orkali	Ko`zatib	Ishlab

Jadvaldan kurinib turganidek bir xil metodlar kullanilganda bilim so`z- vositasida boshkalarda esa o`quvchiga bilim manbai bulib kurgazmali kurollar yoki o`zi bajargan ishi xizmat kiladi.

Biologiya o`qitish metodikasidagi xar bir metod o`z navbatida o`ziga uxshash metodlardan tashkil topadi. Masalan: ogzaki metodlar tarkibiga xikoya, suxbat; ma'ro`za kabilar kirsas, kurgazmali metod tajribalar, natural va tasviriy materiallarning namoishi kabi xillarga bulinadi. Xuddi shunday amaliy metod tarkibida ob'ektni topib olish, anglash, ko`zatis, eksperiment kabi metodlar mavjuddir. O`qitish metodlarining yukorida

kursatilgan turlari o'zgarimas kotib kolgan deb bulmaydi. Metod yoki uning turi dars maemuniga o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga kizikuvchanligiga karab o'zgarib, murakkab – lashib boradi. Masalan: xikoya yukori sinfga borgan sari o'zgarib asta ma'ro'za metodiga aylanadi.

Dars bir kancha metodlardan foydalanilganda yaxshi natija beradi.

Metodik uslublar – metodning o'qitish kullash natijasida o'quvchilar ishining (kurinishi) ayrim tomonlari ifodovchi muayyan elementlaridir. Xar kanday metodga uslub kullanilganda uning tajribada mantikiy, tashkiliy va

texnikaviy tomonlari ko'zatiladi Metoddagi uslubning mantikiy tomoni. dars mazmunini undagi asosiy tushunchalarga

ajratish turli obektlarni belgilash, chakdoslash, farklash kabi ishlarni o'z ichiga olsa ukuv metodikani o'zlashtirishning tashkiliy tomoni o'qituvchilarga dars mavzusini urgatishga, o'quvchilarni jalb etish, ularni dikkatini nimalarga karatish lozimligini xisobga olish, ukuv jarayonini kanday joylarda utkazish, o'quvchilar dars mazmunini kanday urganishlari kerakligi yullarini aniklash kabilarni o'z ichiga oladi.

Ogzaki. metod,

O'qitishda kadimdan kullanilib kelinayottan dastlabki metodlardan biridir.

Bu metodni ogzaki deb nomlanishining boisi shuki, ukuv materialini o'quvchilar o'qituvchining so'zlab beradigan xikoyasi, ma'ro'zasi, tashkil etadigan suxbatni natijasida urganishadi. Boshkacha aychtanda ushbu metod kullanilganda o'quvchilar tayyor bilimlarni o'qituvchining ogzaki so'zlari vositasida anglashadi.

Ogzaki metod ukuv materialini o'qituvchining jonli, yorkin xissiyotlarga boy bulgan so'zi, turli kurgazma kurollar vositasida tushuntirish imkoniyatini beradi.

Insoniyat tarixidagi bosib utilgan yo'z yillarga e'tibor kilsak olimu – fozil kishilarning necha – necha avlodlar ayni shu ogzaki metod vositasida ilm olganliklarini guvoxi bulamiz.

Ogzaki metod o'z tarkibida turdosh metodlardan xikoya, suxbat, ma'ro'za, tushuntirish kabilar oladi. xikoya odatda dars mavzusi turli ilmiy – tadjikotlarning ochilishi tarixiga, olimlarning xayoti, ijodiga, tabiatdagi biror xodisa yoki vokealarning tajribasiga bagishlangan paytlardan kullaniladigan metoddir.

Xikoya metodi – ko'pincha 5 – 8 sinflardagi biologiya ta'limida kullaniladi. xikoya odatda dars mavzusi turli ilmiy – tadjikotlarning

ochilishi tarixiga, olimlarning xayyoti, ijodiga, tabkatdagi biror xodisa yoki voqealarning tajribasiga bagishlangan paytlarda kullaniladigan metoddir. Xikoya yukoridagi mazmunda bulgan ukuv materialini o`qituvchining jonli obrazli tafsilotidir.

Xikoya metodiga kuyiladigan bir kancha talablar bulib bularga kuyidagilarni kursatish mumkin:

1. Xikoya o`qituvchining yorkin jonli so`zlar vositasida utkazilishi lozim.

2. Xikoya metodi kullanilgan uqituvchi artistlik maxoratiga ega bulishi, dars

mavzusining turli qismlariga bayon etayotganda turli xarakatlar, ovoZ

balandligini gox baland yoki pastligiga etibor bermogi, xis – xayajon bilan xikoya kilish kerak.

3. Xikoya dars mavzusini asosiy masalalarini kuyilishi, uning xal etish yullari, xal etilishi va xulosalar chikarish kabi syujet yunalishida tashkil etilmogi kerak.

4. Yukorida aytilgani dek xikoya ko`pincha pastki sinflarda kullanilganidan mazkur sinf o`quvchilarini ruxiy imkoniyatlarini, dikat kilish kobilyatlarini xisobga olish kerak.

Ruxshunoslarning kursatishicha 13 – 15 yoshli o`quvchilar o`z dikatlarini mavzu va xodisalarga 12 – 15 minut davomida karatib turishlari, sungida ularning dikkatari boshka narsalarga kuchishi ko`zatilar akan.

Yukoridagilarga asoslangan xolda xikoya metodidan foydalanilganda uni davomiyiligini 10 – 15 minutdan oshirib yuborish maksadga muvofik emas. 5. Xikoya metodi kullanilganda uqituvchi o`z nutkini tushunarli, kurgazmali bulishligi axamiyat berish lozim. Shu boisdan u xikoya davomida dars mazmuniga oid turli kurgazmali kurollardan foydalanmogi lozim

6. Xikoya metodi uqituvchidan ma'lum nukt madaniyatiga ega bulishlikni talab etadi. Uning nutki ravon, badiylashgan bulmogi ayrim so`zlarni xadeb takrorlamaslik («Ya'ni», «Demak») . kerak.

7. Uqituvchi xikoya qilar ekan o`zi tasvirlayotgan tabiat xodisasini kurgan, olimlar bilan yonma – yon ishlagan, ilmiy kashfiyotlar ochilishida ishtirok ettan kishidok so`zlamok kerak.

Suxbat – odatda dars mazmunio`quvchilarga birmuncha tanish, uning o`z kundalik xayotlarida kurgan, bilgan mavzularga bag`ishlangan paytlarda kullaniladigan metodlar.

Suhbat odatda dars mazmuni uquvchilarga bir muncha tanish uning o`z kundalik hayotlaida ko`rgan bilgan mavzularga bag`ishlangan paytlarda qo`llaniladigan metodlar

Suxbat – dars mazmunini urganishga karatilgan, o`qituvchi tomonidan to`zilgan savollarga o`quvchilarning bergan javoblari asosida utkaziladi.

Suxbat metodidan foydalanilgandan o`qituvchi dars mazmunini xikoya qilib bermaydi. Balki urganiladigan mavzuning mavzusidan kelib chikadigan savollarnio`quvchilargatavola etadi, bu savollarga javob oladi.

Suxbat uchun savollar to`zishda o`qituvchi dars mazmunini, undagi asosiy tushunchalarni urganib chikadi. Sungra darsdagi asosiy tushunchalarga, o`quvchilarning avvaldan o`zlashtirgan bilim zaxiralarini, turmush tajribalarini xisobga olgan xolda ish yuritadi.

Suxbat uchun beriladigan, tayyorlanadigan savollarga bir kanca talablar mavjud bulib ular quyidagilardir.

1.Suxbat uchun to`ziladigan savol, kiska tushunarli, lunda bulishi zarur.

2. Savollar o`quvchilarni uylantiradigan javob berish uchun avvalgi urgan dars materiallari, turmush tajribalari,tabiatdagi ba'zi nursa va xodisalarni ko`zatish natijalari buyicha bulgan karashlaridan foydalangan xolda munosabatini bildiradigan tarzana to`zilishi kerak.

3.Kushalok, savollar berilmasligi lozim.

4.Uquvchilarga beriladigan savollar o`quvchilarni uylantirishga qaratilmog`i kerak.

5. Uqituvchi uquvchilarga beradigan savollarini doimo bir xil koliplarda emas, xar xil shaklda berishi lozim.

6.Savollar asta – sekin murakkablashgan xolda berilishi kerak.

Savollarni murakkablatirib borish kuyidagi tartibda amalga oshirilishi (botanika, zoologiya fanlaridan) mumkin:

Organlar to`zilishini ta'riflash. Xar xil usimlik va xayvonlarni ikkita organini to`zilishini takkoslash.

Organ to`zilishini (urug, ildiz, maysa, kurtak, novda, gul, meva) to`zilishini rivojlanishiga qarab solishtirish.

Organning to`zilishini muxit sharoitiga moslanishi taxlil etish:Xar xil organlar funtsiyalarini taqqoslash;

Organlarning rivojlanishini taqqoslash;

Ikkita organizm rivojini takkoslash;

Ekologik, morfologik yoki sistematik belgilarni takkoslash;

Usimlik va xayvonlar klassifikatsiyasi;

Turli sharoitlarda yashovchi usimlik va xayvonlarning xayotta moslanishi.

Suxbat metodi qullanilganda savollarga barcha uquvchilar teng javob bermaslar. Suxbat metodi uquvchilarni dars mazmuni faol o`zlashtirishlariga xizmat qiladi. Dars mobaynida ayrim o`quvchilar berilgan javoblarga qiynalayetganini, shu soxada bilim darajalari past ekanligini sezib borishadi. Boshkalari esa savollarga anii ravon javob berib ruxan tiklanadilar.

Undan tashkari suxbat o`quvchilarni tabiatda kurgan, ko`zatgan ba'zi narsa va xodisalarni yanada konkret ilmiy gushunib olishlariga xizmat qiladi.

Suxbat metodi qullanilgan mavzularda xam uqituvchi turli kurgazma qurollardan foydalanadi. Suxbat faoliyatidan uquvchilar rag`batlan tirib boriladi. Maktab ma'ro`zasi odatda yuqori sinf o`quvchilari bilan utkaziladigan ukuv – tarbiya ishlarining bir kurinishidir. Ma'ro`zadan dars mavzusi gurli ilmiy kashfiyotlar, konuniyatlar, biologik xodisalarning moxiyatlar kabi masalalariga bag`ishlangan vaqtlarda ko`prok qullaniladi. Ma'ro`za odatda 9 – 11 sinf biologiya ta'limida kullanilib, uning davomiyligi 30 – 40 min. qadar borishi mumkin.

Maktab ma'ro`zasi uquv materialining ancha kattaligi, mantiliy to`zilishi, isbot va umumlashtirishning birmuncha murakkabliligi bilan xarakterlanadi.

Uqituvchi ma'ro`zaga tayyorlanishda uning puxta rejasini to`zib olishi ma'ro`za foydalaniladigan kurgazma kuollar, adabiyotlar tayyorlab kuyadi.

Ma'ro`za mavzusi e'lon kilinganch uning rejasini doskaga- yozib kuyiladi.

Maktab ma'ro`zasi uchun o`qituvchi turli kurgazmali kuollardan, uquvchilarni faoliklariga xizmat etuvchi muamoli savollardan foydalangan xolda utkazish talab etiladi. So`zning insonga ta'siri juda kuchli. Shu sababli og`zaki metodlardan okilona foydalanish ta'lim jarayoni oldiga kuyilgan maqsadlarni samarali bajarishga xizmat kiladi.

Savol va topshirkalar.

1. Uqitish metodiga tarif bering
2. Biologiyani uqitish metodlarini xillari ayting.
3. Xikoya metodi va undan foydalanishning xususiyatlarini ayting.
4. Suxbat metodidan foydalanishning xususiyatlari.

5. Maktab ma'ro'zasidan foydalanishshga bulgan uslubiy talablar.

Tayanch belgilar.

Metod. Metod xillar. Ogzaki metod. Suxbat. Maktab ma'ro'zasi.

5-MAVZU: BIOLOGIYA TA'LIMIDA KURGAZMALI METODLARDAN FOYDALANISH.

Reja.

1. Kurgazmali metod xakida tushuncha.
2. Kurgazmali metod xillari tasviriy kurollarida foydalanish.
3. Natural kurgazma kurollaridai foydalaiish.
4. Tajribalardai foydalaiish.

